



AGRIOLIMACIDAE WAGNER, 1975 OILASI VAKILLARINING
GELMINTLARNING ORALIQ XO'JAYIN SIFATIDAGI ROLI

Orziyeva Yoqutoy Matnazar qizi

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Oila AGRIOLIMACIDAE Wagner, 1975 vakillari Golarktika bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, hozirda dunyo faunasida 6 ta urug'i mavjud, shulardan 1 urug' vakillari O'zbekistonda uchraydi. Urug' *Deroceras Rafinesque*, 1820. Hozirda bu urug'ning dunyo faunasida 31 turi mavjud bo'lib, shulardan 5 tasi O'zbekistonda uchraydi, 2 turi esa gelmintlarning oraliq xo'jayin vazifasini o'taydi.

Kalit so'zlar: AGRIOLIMACIDAE, oraliq xo'jayin, gelmint, *deroceras leave*, *deroceras sturanyi*.

Abstract: Representatives of the family AGRIOLIMACIDAE Wagner, 1975 are widely distributed throughout the Holarctic, currently there are 6 genera in the world fauna, of which 1 genera are found in Uzbekistan. The genus *Deroceras Rafinesque*, 1820. Currently, there are 31 species of this genus in the world fauna, 5 of which are found in Uzbekistan, and 2 species act as intermediate hosts of helminths.

Key words: AGRIOLIMACIDAE, intermediate host, helminth, *deroceras leave*, *deroceras sturanyi*.

Аннотация: Представители семейства AGRIOLIMACIDAE Wagner, 1975 широко распространены по всей Голарктике, в настоящее время в мировой фауне насчитывается 6 родов, из них 1 род встречается в Узбекистане. Род *Deroceras Rafinesque*, 1820. В настоящее время в мировой фауне насчитывается 31 вид этого рода, 5 из которых встречаются в Узбекистане, а 2 вида выступают промежуточными хозяевами гельминтов.

Ключевые слова: AGRIOLIMACIDAE, промежуточный хозяин, гельминт, *Deroceras leave*, *Deroceras sturanyi*.

Mollyuskalar hayvonot olamida, turlar sonining ko'pligi jihatidan bo'g'im oyoqlilar tipidan keyingi o'rinda turib, ular asosan suv muhitida, o'pkali mollyuskalarning ma'lum bir turlari esa quruqlikda turli xil atrof-muhit sharoitlariga yashashga moslashgan. Mollyuskalar tabiatda va inson hayotida bir qator muhim ahamiyatga ega bo'lib, shulardan biri, ularning xo'jalik ahamiyati hisoblanadi ya'ni, ko'pgina sutemizuvchilar va qushlarda xavfli gelmintoz kasalliklarini tarqatishda oraliq xo'jayin vazifasini o'taydi. Bu bilan ayrim hollarda qishloq xo'jaligini chorvachilik va parrandachilik sohasiga katta zarar etkazadi.

Oraliq xo'jayin vazifasini o'taydigan mollyuskalar bilan gelmintlar lichinkasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik uzoq evolyutsiya jarayonida shakllangan bo'lib, gelmintlar tarqalishi va taqsimlanishida muhim rol o'ynaydi. Trematoda va nematodalarning tarqalishida oraliq xo'jayin vazifasini o'taydi. Ko'pgina patogen gelmintlarning fazoviy tarqalishida ularning oraliq xo'jayinlarining borligi yoki yo'qligi bilan baholanadi[5].

Quruqlik mollyuskalarning gelmint lichinkasi bilan zararlanish darajasi mollyuskalarning faollik darajasiga bog'liq. Mollyuskalarni faollik darajasi esa biotop xususiyati va joy mikroiklimiga bog'liq holda kechadi. Shuning uchun, gelmint



lichinkalarining oraliq xo'jayini hisoblangan mollyuskalarni yashash joyi xususiyatidan kelib chiqib 4 ta ekologik guruhlariga ajratiladi[1].

I guruh – interzonal biotoplarda yashaydigan turlar.

II guruh – tekislik biotoplarda yashaydigan turlar.

III guruh – adir biotoplarda yashaydigan turlar.

IV guruh – tog' biotoplarida yashaydigan turlar.

Shundan tekislik biotoplarda yashaydigan turlar guruhiga *Xeropicta candaharica*, *Deroceras laeve*, *D. sturanyi*, *Candaharia levanderi* turlari kirib, *X. candaharica* va *D. laeve* keng arealga ega bo'lgan turlarga kiradi.


Qorinoqli mollyuskalarning ko'pchilik vakillarida tashqi chig'anoq mavjud bo'lib, ma'lum bir oila va avlod vakillarida chig'anoq reduksiyaga uchrab, rudiment shaklda – kichkina plastinka tarzida saqlanib qolgan va mantiya o'rab olganligi uchun chig'anoq ko'rinmaydi. Tanasida chig'anog'ining ko'rinmasligi va harakatlangan holatda tanasidan ko'p shilliq ajratganligi sababli qorin oyoqlilar sinfining bu vakillari chig'anoqsiz yoki yalang'och shilliqqurtlar deb nom olgan.

Oila *AGRIOLIMACIDAE* Wagner, 1975. Oila vakillari kichik yoki o'rta o'lchamli, eng katta namunalari fiksatsiyadan keyin mahkamlanganda 60 mmga yetadi. Bu oila vakillari Golarktika bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, hozirda dunyo faunasida 6 ta urug'i mavjud, shulardan 1 urug' vakillari O'zbekistonda uchraydi. Urug' *Deroceras Rafinesque*, 1820. Hozirda bu urug'ning dunyo faunasida 31 turi mavjud bo'lib, shulardan 5 tasi O'zbekistonda uchrab, 2 turi esa gelmintlarning oraliq xo'jayin vazifasini o'taydi[2].

1. *Deroceras laeve* Muller, 1774. Bu shilliqqurt harakatchan bo'lib, tana tuzilishi silindirsimon, qisqarganda esa yelpig'ichsimon ko'rinishga ega. Mantiyasi ancha katta, tirikligida orqa tomonidan aylanasimon, fiksatsiya qilingandan keyin uchburchaksimon ko'rinishga ega bo'ladi. Tana uzunligi harakat chog'ida 25 mm gacha, qisqarganda 13-15 mm. Mantiyasi 10 mm gacha qisqarganda esa 5-7 mm ni tashkil etadi. Mezofil tur bo'lib, hamma biotoplarda keng tarqalgan. Asosan ariq bo'ylaridagi o'tlar orasida va sug'oriladigan yerlardagi poliz ekinlari orasida yashaydi.

Bu turning populyatsiyadagi zichligi havo harorati va namlikka bog'liq bo'lib, namlik miqdori yuqori bo'lgan yillari 1 m² maydonda o'rtacha 25-30 ta, past bo'lgan yilda esa bu ko'rsatgich 10-15 ni tashkil etadi. Hamdo'stlik mamlakatlarini barcha hududlarida keng tarqalgan. Janubiy yarim shardagi ko'pgina davlatlarga, xususan O'zbeistonga inson faoliyati tufayli «introdutsent» qilingan. *Davanea proglottina*, *Protostrongylus rufescens*, *Cystocaulus ocreatus*, *Varestrongylus pneumonicus* uchun oraliq xo'jayin vazifasini o'taydi.

D. laeve insonlarda kasallik keltirib chiqaradigan boshqa metastrongylid qurtlari uchun oraliq xo'jayin sifatida aniqlangan[4].



Rasm. *Deroceras leae*

2. *Deroceras sturanyi* Simroth, 1889. Mantiyasi tana qismini yarimini egallaydi. Tana rangi och sarg'ich yoki jigarsimon. Mantiya va orqasini o'rta qismi, yon qismiga nisbatan bir oz qoraroq. Mezofil tur bo'lib, bog' va poliz maydonlariga uncha uzoq bo'lmagan joylarda biotoplprda yashaydi. *Deroceras sturanyi*ning populyatsiyadagi zichligi uncha yuqori emas. Issiqxonalarga yaqin bo'lgan olmazorlar uchun qilingan suniy to'siqlar yaqinidagi o'simliklar ostida populyatsiyadagi zichligi 1-2 m² maydonda 1-2 ta bo'lsa, turli xil bog'lardagi barg qoplamlari va suniy to'siqlar ostida 2-3 m² maydonda esa 2-3 tani uchratish mumkin. O'rta va Sharqiy Yevropada tarqalgan bo'lib, Markaziy Osiyo davlatlariga antropogen kuchlar ta'siri ostida tarqalgan. O'zbekistonning barcha hududida tarqalgan *Brachylaemus fuscatus* uchun oraliq xo'jayin vazifasini o'taydi.

Xulosa qilib aytganda, AGRIOLIMACIDAE Wagner, 1975 oilasi vakillari hisoblangan *Deroceras leae* va *Deroceras sturanyi* uy va yovvoyi hayvonlarda uchraydigan *Davanea proglottina*, *Protostrongylus rufescens*, *Cystocaulus ocreatus*, *Varestrongylus pneumonicus*, *Brachylaemus fuscatus* gelmintlarining oraliq xo'jayini hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. A.Pazilov A. Malakologiya, Darslik/ A.Pazilov. – T.: Lesson press 2020.-232 bet.
2. А.Пазиллов, А.Э.Кучбоев “Ўзбекистонда уй ва ёввойи ҳайвонлар гельминтларининг оралик хўжайини - куруклик моллюскалар (Аниқлагич-Атлас)” Тошкент 2017
3. Dedov IK, Schnepapat UE, Reise H, Quang Vu M. First record of an agriolimacid slug in Southeast Asia - *Deroceras laeve* (O. F. Müller, 1774) (Gastropoda: Pulmonata) recently introduced to the Socialist Republic of Vietnam. *Biodivers Data J.* 2020 Dec 3;8:e59644. doi: 10.3897/BDJ.8.e59644. PMID: 33328779; PMCID: PMC7728728.
4. Кучбоев А. Э., Каримова Р. Р., Пазиллов А., Рузиев Б. Х., Амиров О. О. Наземные моллюски Узбекистана – промежуточные хозяева протостронгилид (Nematoda: Protostrongylidae) // Российский паразитологический журнал. – М., 2017. – Т.39.- Вып.1. – С.
5. Azimov J.A., Shakarboyev E.B., Golovanov V.I., Akramova F.J., Isakova D.T., Salimov B.S., Izatullayev Z.I., Mamatov Sh.S. Qishloq xo'jalik hayvonlari va parrandalarning trematodozlariga qarshi kurash choratadbirlari bo'yicha tavsiyalar. - Toshkent, 2006. -49 b.



6. Акрамова Ф.Д., Азимов Д.А. Эколого-фаунистический анализ трематод семейства Bilharziellidae Price, 1929 // Узбекский биологический журнал. - Ташкент, 2005. -№5. -С. 47-52.

7. Davronov B.O., Izzatullayev Z.I., Davronov O. O'zbekiston janubida yashovchi mollyuskalarga qarshi biologik kurashning choralariga doir // O'zbekiston biologiya jurnali. № 1, 1998, 55-58 b.

8. Земоглядчук К.В. Формирования фауны наземных моллюсков в условиях города// Сахаровские чтения 2004 года: экологические проблемы XXIII века. Мат. междунаrodn. научн. конф. Минск. Изд-во Бестпринт.2004. - С.64-66.

9. Иванькова А.Ф., Земоглядчук К.В. Наземные моллюски в урбанизированных и природных ландшафтах Брестского района // Влияние антропогенных факторов на состояние и динамику экосистем Полесья, Брест, БрГУ им. А. С. Пушкина. 2001.-С. 123-125.

10. Иззатуллаев З.И., Салимов Б.С. Ветеринарные аспекты малакологии Узбекистана // Сб. научных трудов. - Житомир: Изд-во «Волынь», 2004. - С.161-162.

11. Pazilov A., Gaibnazarova F., Karimkulov A. Mirzacho'l qorinoyoqli mollyuskalari. - Tashkent: Fan, 2016. -176 s.

12. Ruziqulova N.A. Samarqand shahri malakofaunasi, ekologik guruhleri va zoogeografik tahlili// «Охрана и рациональное использование природных ресурсов Южного Приаралья» Материалы международной научнопрактической конференции. Нукус, 2020. - 256-259 б.